
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR

Shamshod Karimov
Buxoro davlat universiteti yetakchi mutaxassisi
Sh.karimov0001@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro vohasi an’anaviy turar-joylarining etnografik o‘rganilish tarixi tahlil qilingan. Unda etnograf tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, turar-joylarning me’moriy tuzilishi, qurilish materiallari va xonalar joylashuvi bilan bog‘liq qarashlari yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy turar-joylarning shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Buxoro vohasi, an’anaviy turar-joy, etnografiya, moddiy madaniyat, xalq me’morchiligi, turar-joy tarixi, lokal xususiyatlar.

ЖИЛЫЕ ДОМА В ТРАДИЦИОННОЙ АРХИТЕКТУРЕ БУХАРЫ

Аннотация. В статье рассматривается история этнографического изучения традиционных жилищ Бухарского оазиса. Освещены научные исследования, посвящённые архитектуре, строительным материалам и планировке жилищ. Также проанализировано влияние природно-географических и социально-экономических факторов на их формирование.

Ключевые слова: Бухарский оазис, традиционное жилище, этнография, материальная культура, народная архитектура, история жилища, локальные особенности.

RESIDENTIAL HOUSES IN THE TRADITIONAL ARCHITECTURE OF BUKHARA

Abstract. This article examines the history of ethnographic studies of traditional dwellings in the Bukhara oasis. It highlights research on the architecture, construction materials, and layout of traditional dwellings. The influence of natural-geographical and socio-economic factors on their formation is also analyzed.

Keywords: Bukhara oasis, traditional dwelling, ethnography, material culture, folk architecture, history of dwelling, local features.

KIRISH

Turar-joy moddiy madaniyatning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, insonning zarur ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. U ma’lum bir tarixiy sharoitda atrofdagi tabiiy-geografik muhit va ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoiti

ta’sirida shakllanadi. Turar-joy xalqning moddiy va ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tarixiy yo‘lining ko‘zgusidir. Turar-joy turi, oilaning soni va aholining etnik tarkibi ham uy-joyning shakllanishiga ma’lum darajada ta’sir qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Buxoro vohasi turar-joylari mavzusi yillar davomida ko‘plab mahalliy va xorijiy etnograf hamda sharqshunos olimlarning tadqiqot markazida bo‘lib kelgan. Xususan, O. A. Suxareva, A. K. Pisarchik va M. S. Andreyev kabi yirik etnograflar voha moddiy madaniyatini, jumladan turar-joy qurilishi masalalarini chuqur o‘rgangan bo‘lsa, o‘tgan asrning 70-80-yillarida K. Sh. Shoniyozov va X. I. Ismoilov singari etnograf olimlar o‘z asarlarida bu mavzuga qisman to‘xtalib o‘tishgan. Shuningdek, L. Rempel, B. N. Zasipkin va V. L. Voronina kabi rus olimlari ham O‘rta Osiyo xalqlari arxitekturasi doirasida Buxoro vohasi turar-joylarini tadqiq etishgan. Ammo mustaqillik yillarida bu mavzu, I. Jabborov kabi olimlarning umumlashtiruvchi asarlaridan tashqari, alohida va yetarlicha chuqur o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotchilar tomonidan to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro vohasi turar-joylari o‘ziga xos qurilish an’analari va fazoviy tuzilishi bilan ajralib turadi: hovlilar an’anaviy ravishda “berun” (tashqi) va “durum” (ichki) qismlarga bo‘linib, xonalar shu tartibda — darvozaxonadan mehmonxonaga, undan ichki xonalarga — joylashtirilgan. Qurilishda asosiy xom-ashyo sifatida loy, undan tayyorlangan guvala, paxsa va xom g‘isht ishlatilgan, poydevor esa g‘isht yoki toshdan qo‘yilgan. K. Sh. Shoniyozov o‘zbek xalqi turar-joylarini hududiy joylashuviga ko‘ra voha, tog‘ oldi, tog‘li va dasht tipiga ajratgan bo‘lib, Buxoro vohasi turar-joylari aynan voha tipiga mansub hisoblanadi hamda o‘zining biqiq, ko‘cha tomoni derazasiz devor bilan o‘ralgan hovlilari bilan Farg‘ona va Xorazm turar-joylaridan farqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro vohasi etnografiyasi yillar davomida etnograflar va sharqshunos olimlar tadqiqot markazida bo‘lgan. Xususan, O. A. Suxareva [16], A. K. Pisarchik [14] va M. S. Andreyev [2] kabi yirik etnograflar voha moddiy madaniyati sohasida tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. O‘tgan asrning 70-80 yillarida K. Sh. Shoniyozov, X. I. Ismoilov kabi yetuk etnograflarimiz ham o‘zbek xalqining moddiy madaniyati, xo‘jaligi va urf-odatlariga bag‘ishlangan qator etnografik ocherk va asarlarida Buxoro vohasi turar-joylari qurilishi hamda an’analari haqida qisman ma’lumot berib o‘tishgan. O‘zbek xalqi moddiy madaniyatini o‘zining asarlarida tahlil qilgan akademik K. Sh. Shoniyozov Buxoro vohasi turar-joylarini “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida O‘zbeklar moddiy madaniyati etnografik ocherklari” nomli

kitobini chop etadi va kitobda xalqimiz an’anaviy turar-joylari haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan [18].

A. K. Pisarchikning 1945-yili O‘rta Osiyo Davlat universitetdagi “XIX-XX asrlaridagi Samarqand turar-joylari va mahalliy masjidlar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini e’tirof etib o‘tishimiz mumkin. Uzoq yillik mashaqqat va mehnat evaziga yozilgan dissertatsiya 1974-yil chop etilgan hamda “XIX-XX asrlar Samarqand xalqaro arxitekturasi” kitobi uchun asos bo‘ldi. Shu bilan birga muallifning 1937-yil “SSSR arxitekturasi” jurnalida chiqqan “Buxoro va Xiva shaharlari turar-joylari” mavzusida yozgan maqolasi Buxoro turar-joylari va arxitekturasi uchun qimmatli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan [14]. Shu bilan birga, uning “XIX asr va XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi xalq ustalari qurilish materiallari va konstruktiv metodlar” nomli maqolasida ham Buxoro, Xiva va boshqa hududlar bilan vodiy me’morchiligini o‘xshash va farqli tomonlarini yotirib o‘tgan [14]. A. K. Pisarchikning O‘zbek xalqi moddiy madaniyatinini o‘rganishidagi o‘rni beqiyos.

L. Rempelning “O‘rta Osiyo xalqlari turar-joylari arxitekturasi” maqolasida O‘rta Osiyo xalqlari uy-joylari bilan birga Samarqand, Xiva, Toshkent va Buxoro shaharlari an’anaviy uylari haqida ham fikr gap boradi [15]. Bundan tashqari, muallifning 1982-yilda chop etilgan asarida ham Buxoroning bozorlari, guzarlari, eski mahallari, xonaqoh va uy-joylar haqidagi ma’lumotlar batafsil yoritilgan. M. S. Andreyev va O. D. Chexovichning “Buxoro arki” asarida Arki oliydagi binolar qatorida, u yerda joylashgan turar-joylar haqidagi ma’lumotlar ham qisman yoritib o‘tilgan [2].

O‘rta Osiyo arxitekturasi nafaqat mahalliy olimlarni balki Rossiya olimlarini ham e’tiborini tortgan. Bunga yorqin misol, B. N. Zasipkinning 1948-yil Moskvada chop etilgan “O‘rta Osiyo arxitekturasi” nomli asaridir. Kitobda O‘rta Osiyo xalqlari arxitekturasi, masjid va madrasalar bilan bir qatorda, Buxoro vohasidagi turar-joylar to‘g‘risida ham fikr yuritilgan.

Mashhur rus me’mori, tarix fanlari doktori, 200 dan ortiq ilmiy ish muallifi V.L. Voronina ham O‘zbek xalqi arxitekturasi borasida ko‘pgina tadqiqotlar olib borgan. U nafaqat O‘rta Osiyo balki, Old Osiyo va Afrika xalqlari arxitektura tarixi masalalari bo‘yicha mutaxassis edi. Muallif “O‘zbek an’anaviy turar-joylari” mavzusidagi maqolasida O‘zbekistonning turli shaharlaridagi turar-joylarini o‘rganib Buxoro vohasi turar-joylari haqida ham ma’lumotlar bergan. V.L. Voroninaning ham “O‘rta Osiyo xalqlari uy-joylari va ob-havo” mavzusidagi maqolasida ham voha turar-joylari yoritilgan [3].

Mustaqillikka erishganimizdan keyin yurtimiz tarixini o‘rganishga chuqur kirishilgan bo‘lsada, Buxoro vohasi turar-joylari mustaqillik davrida yetarlicha

o‘rganilmagan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor I. Jabborovning “Buyuk Xorazmshohlar davlati” [6]. Antik madaniyat va ma’naviyat beshigi [6], “O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati” [6], “O‘zbek xalqi etnografiyasi [5]” kabi asarlarida o‘zbek xalqi an’anaviy turar-joylari bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

Farg‘ona vodiysi va Buxoro vohasi aholisi turar-joylar qurilishi va u bilan bog‘liq e’tiqod va marosimlar A. Ashirovning “O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va morosimlari” asarida keng yoritib berilgan [1].

A.K. Pisarchikning “Arxeologiya“ jurnalining 1937-yilgi sonida chiqqan maqolasiga ko‘ra: Buxoro uy-joylarning qurilishidagi dastlabki jihatlar ko‘rib o‘tilgan. Maqolada asosan buxorolik me’mor usta Ibragim Hofizov bilan bo‘lgan intervyu yoritilgan. Usta uy qurilishini boshlashdan oldin yorug‘lik tushadigan qismlarni aniqlab xonalarni shunga qarab, joylashtirilishiga e’tibor qaratgan. Shu bilan birga me’mor xona o‘lchamlari va poydevor qalinligi, yillar davomida poydevor bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar va ularning sabablarini va shunga o‘xshash jihatlarni sanab o‘tgan. Shu bilan birga, Buxoro turar-joylarida xonalar tavsifi ham yoritilgan [12]. Xuddi shu jurnalda L. Rempelning ham “O‘rta Osiyo xalqlari arxitekturasi” nomli maqolasi chop etilgan. Maqolada Buxoro vohasidagi uy-joylar qatoridaToshkent, Xiva va boshqa O‘rta Osiyo shaharlari haqida ham so‘z boradi. O‘troq hayotga o‘tgan O‘zbeklar va tojiklar yashaydigan uy-joylar poydevori g‘ishtdan va toshdan quyilgani, so‘ng bir qatorlik yoki ikki qatorlik qilib yog‘ochdan karkas devor qurulgani undan keyin xom g‘isht va quyoshda qurutilgan lassa bo‘laklari bilan terilgani va undan keyingi jarayonlar aytib o‘tilgan. Buxoro hovlilalarining “berun” (tashqi) va “durun” (ichki) qismlarga bo‘linganini va shuningdek xonalarning joylashuvi borasida ham fikrlar aytib o‘tilgan. Misol uchun, ko‘chadan ichkariga kirganingizda dastavval darvozaxonaga tushushingiz, darvozanadan mehmonlarni kutib olish uchun mehmonxonaga o‘tish va shu kabi qolgan xonalar haqida ham maqolada ma’lumotlar aytib o‘tilgan [15].

O‘zbek xalqi turar-joylari tadqiqoti V.L. Voroninaning faoliyatida o‘rni beqiyos. Muallif_“O‘zbekiston arxitekturasining xalq an’analari” nomli kitobida O‘zbekistonning turli viloyatlari misolida uy-joylar qurilishidagi muhim jihatlarini tahlil etadi. Misol uchun ob-havoning qurilishga ta’sirini, imoratning tashqi va ichki qismlaridagi bezaklar, qurilish xom-ashyolari va tartibiga e’tibor qaratib o‘tgan [3]. Bundan tashqari uning “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari turar-joylari” maqolasida O‘zbekiston turli viloyatlaridagi ob-havo sharoitlaribing qurilish sohasidagi ahamiyati keng ochib berilgan. O‘rta Osiyoning ba’zi shaharlarida yozda havo harorati ba’zan 40°C va hattoki 45°C gacha ko‘tarilib, -5°C gacha tushishi, ba’zi holatlarda – 10-15°C gacha sovushi mumkin. Yozgi va qishgi kunlar

o‘rtasidagi tafovut 40°Cni tashkil qilmoqda. Bunday holatda xonaning haroratini bir xil moslashtirish murakkab bo‘lgan. Shuning uchun Buxoro va Xiva shaharlarida qurilgan ko‘pxonali uylarda qish va yoz fasllari uchun alohida xonalar qurilgan va bu imoratlar asosan Buxoro va Xiva uchun xosligi ta’kidlangan [3].

O‘zbek etnograf olimi K. Shoniyozovning “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida O‘zbeklar moddiy madaniyati etnografik ocherklari” nomli kitobi etnografiyada moddiy madaniyatni tadqiq qilish uchun fenomenal asar edi. Unda O‘zbek xalqi uy-joy turlari va qurilishidagi xom-ashyolar haqida fikr yuritilgan hamda turar-joylar hududiga qarab to‘rt turda tavsiflab berilgan:

1. Voha tipidagi turar-joylar:
2. Tog‘ oldi tipidagi turar-joylar:
3. Tog‘li hududdagi turar-joylar:
4. Dashtdagi turar-joylar.

O‘zbek xalqi turmushida turar-joy qurilishida ishlatiladigan asosiy xom-ashyolar borasida ham to‘xtalib o‘tgan. Qadimdan O‘rta Osiyoda asosiy qurilish xom-ashyolardan biri – loy bo‘lgan. Loydan guvala, paxsa, xom g‘ishtdan qamishdan foydalanilganligi ta’kidlangan [18].

Xom-ashyolar borasida A.K. Pisarchik ham o‘z fikrlarini “XIX asr va XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi xalq ustalari qurilish materiallari va konstruktiv metodlar” maqolasi olimaning Farg‘onalik Usto Yusuf Ali, Hakimjon va Ahmadjondan olgan intervyusi asosida boyitilgan. O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi Farg‘onada ham asosiy qurilish mteriali loy ekanligi ta’kidlangan [14].

B.N. Zasipkinning “O‘rta Osiyo arxitekturasi” asari arxitektura taraqqiyoti tarixiy bosqichlariga bag‘ishlangan bo‘lib unda XVI asr Buxoro arxitekturasi, O‘zbekistonning XIX asrdagi turar-joylarida xalq san’ati masalalarini keng yoritib beradi. Misol uchun, Buxorodagi uy-joylarning tashqi va ichki qismidagi bezaklar, mehmonxona ichki qismi bezaklari, uylarning ikki qavatli karkasdan qurilganligi, ularning ichi alohida tokchalar bilan bezatilganligi xususida fikr yuritadi [10]. Bundan tashqari, Zasipkinning ta’kidlashicha arxitektor M. Timofeyev Buxoro tipik turar-joyi chizmalarini yaratgan [10].

O. I. Ibragimov uy-joy qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qadimgi urf-odatlar va an’analarni tadqiq etadi. Xususan, bino quriladigan joy va kunni aniqlashtirish uchun ajdodlar ruhidan maslahat olish, O‘zbekistonning janubidagi o‘troq aholi oy kunlarini 3 ta 10 kunlikka ajratib hisoblash. ya’ni oyning fazalariga e’tibor qilingani o‘ng, chap va to‘lin oy kunlari, bular ichida (juma kunidan tashqari) 10 kunlik omadli va baxtli hisoblangani, uy qurib bitkazilgach, dastavval uyga ko‘p farzandli, yoshi keksa inson kirib, isiriq (hazorispand) tutatgani ya’ni uyni tashrif buyuradigan

xonadon egalari uchun har xil ko‘zdan va balo-qazodan asrash singari ayrim urf-odatlar, irim-sirimlar batafsil yoritilgan [11].

Yirik etnograf olim Iso Jabborov uy-joylar va ularning jihozlanishi haqida fikr yuritib, moddiy madaniyatning ajralmas qismi uy-joylarning qurilishida turli tarixiy va tabiiy-geografik sharoitlar tufayli xilma-xillik yuzaga kelishini asoslab beradi. Xususan, hozirgacha saqlanib kelingan, asosan qurilish konstruksiyasi va uslubi, qurilish rejasi va bezaklari bilan ajralib turgan mustaqil va o‘ziga xos Farg‘ona, Buxoro, Xiva va Shahrisabz me’morchiligi mashhur bo‘lganligini qayd etadi. Farg‘ona vodiysi seysmik zonada jo‘ylashgani uchun asosan, ikki qavatli qo‘shsinch uylar qurish, zilzila kam kuzatiladigan Xivada esa bir qator sinchdan imorat qilinganini alohida ta’kidlaydi [11].

O‘zbeklarda turar-joylar qurilishida ba’zi bir o‘ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me’morchilik tipi keng tarqalganligi, qadimiy uylar odatda biqiq, ko‘cha va qo‘shni tomoni derazasiz devor bilan o‘ralgan hovlilardan iborat bo‘lgani, barcha turar-joy va xo‘jalik xonalarining oynalari ichkari tomonga qaratilgani buxoroliklarga ham xos urf edi.

Xorazm vohasi turar-joylari qurilishi va undagi xonalar har jabhada Buxoro vohasinikiga o‘xshash bo‘lganligi A.N. Jilinaning tadqiqotida o‘rganilgan. Xorazm vohasidagi qurilish xom-ashyolari, tashqi tomondagi bezaklar, xonalarning chizmalarida va bir qancha xalq me’morchiligi bilan bog‘liq an’analar va urf-odatlar o‘ziga xos xususiyatlarida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Xususan, Jumaniyoz Bobojonovning hovlisi misolida turar-joy xonalari alohida etnografik nuqtai-nazaridan o‘rganilgan [9]. Buxoro vohasini o‘rganish yillar davomida tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga qaratgan bo‘lib, ularning me’rosida vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir qimmatli ma’lumotlar o‘rin egallagan.

XULOSA

Buxoro vohasi turar-joylari mavzusi O. A. Suxareva, A. K. Pisarchik, M. S. Andreyev, L. Rempel, B. N. Zasipkin, V. L. Voronina kabi rus sharqshunoslari hamda K. Sh. Shoniyozov, I. Jabborov, A. Ashirov singari mahalliy etnograflar tomonidan qisman o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar turar-joyning tabiiy-geografik muhit, mahalliy xom-ashyo (loy, paxsa, g‘isht) va ijtimoiy turmush tarzi ta’sirida shakllanganini, shuningdek uning Farg‘ona va Xorazmdan farqli, “berun”-“durun” tuzilishiga ega o‘ziga xosligini asoslab bergan.

Shunga qaramay, mustaqillik davrida mavzu alohida va chuqur o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda, xususan zamonaviy davrda an’anaviy turar-joy madaniyatining saqlanish dinamikasi hali tadqiq etilmagan. Shu bois mavzuni dala-etnografik, qiyosiy-tarixiy va tipologik metodlar asosida yanada kengroq o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
2. Андреев М.С. Чехович О.Д. Арк Бухары. Душанбе: "Дониш" – 1972.
3. Воронина В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Москва. – Государственное издательство архитектуры и градостроительства. – 1951.
4. Воронина, В. Л. Жилище народов Средней Азии и климат. // Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М.: “ Наука “, 1982. – С. 48-69.
5. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият бешиги. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1999. -Б. 223.
6. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Тошкент, “ШАРҚ”. 1999. –Б. 144.
7. Жабборов И. Ўзбек халқи етнографияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
8. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Тошкент, “ЎҚИТУВЧИ”. 2003.
9. Жилина А. Н. Традиционные черты в современном жилище Хорезма//Советская этнография. М.: “Наука”, 1969.
10. Засыпкин Б. Н. Очерки по архитектуры народов СССР//Архитектура Средней Азии. – М.: Издательство академии архитектуры СССР, 1948.
11. Ибрагимов О. И**.** Обычаи и приметы, связанные со строительством жилища и вселением в него // *Вопросы археологии, древней истории и этнографии*. – Самарканд, 1985.
12. Писарчик А. К. Жилой городской дом Бухары и Хивы // Архитектура СССР. Москва, 1937. –С. 40-47.
13. Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда XIX - XX вв. Душанбе: "Дониш" – 1974.
14. Писарчик А.К. Строительные материалы и конструктивные приемы народных мастеров Ферганской долины в XIX-начале XX в. // Среднеазиатский Этнографический Сборник. М., 1954.
15. Рempель Л. Архитектура народного жилища в Средней Азии // Архитектура СССР. Москва, 1937.
16. Сухарева О. А. Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966.
17. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). –М.: Наука. 1976.
18. Шаниязов К. Ш. Исмаилов Х. И. Этнографичиские очерки материальной культуры узбеков конец XIX начало XX в. – “Фан” . – Ташкент. 1981.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz